

O'ZBEK TILI VA INGLIZ TILIDA FE'L NISBATLARI

Ilmiy rahbar: Feruza Sharipova

*TDPU xorijiy til va adabiyoti fakulteti ingliz tili
amaliy kursi kafedراسi o'qituvchisi*

Talaba: Ibodullayeva Shahnoza Farxod qizi

*Nizomiy nomidagi TDPU xorijiy til va
adabiyoti fakulteti 104-“a” guruh talabasi*

Annotatsiya. Quyidagi maqola o'zbek tili va ingliz tilida fe'l nisbatlarining turlanishini o'rganib ularning bir biridan farqi va qo'llanilishini yoritib beradi. Maqolaning asosiy mazmuni ingliz tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'rganuvchi talabalarga fe'l nisbatlarining mohiyatini ikkala tilda to'liq tushunishi uchun yordam beradi.

Kalit so'zlar. Fe'l, fe'l nisbatlari, active voice, passive voice, qo'shimcha, present simple, present continuous.

Asosiy qism. Bugungi kunda turli xil chet tillarini o'rganish zamonamizning dolzarb talablaridan biriga aylanib ulgurgan. Xitoy, Fransuz, Ispan kabi yer yuzi aholisining ko'p qismi tomonidan ishlatiladigan tillarni o'rganish yildan yilga ommalashib bormoqda. Albattaki ingliz tili ham bundan mustasno emas. Statistik ma'lumotlarga qaraganda bugungi kunda dunyo aholisining har ycttitadan bittasi ingliz tilida bermalol gaplasha olar ekan. Shuningdek, mamlakatimizda ham hukumat tomonidan ushbu sohaga alohida e'tibor qaratilgan. Buning yaqqol dalili sifatida O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi qaroriga muvofiq 2013-2014-o'quv yilidan boshlab respublikamizning barcha hududlarida chet tillarini, asosan, ingliz tilini umumta'lirn maktablarining birinchi sinflaridan boshlab bosqichma bosqich o'rgatish yo'lga qo'yildi. Ma'lumki, o'z ona tilini bilmay turib, chet tilini o'rganish mushkul masala. Chunki har bir tilning o'ziga xos grammatikasi mavjud va buni o'rganish uchun o'z ona tilimizning grammatikasini ma'lum darajada bilish talab etiladi. Ular o'rtasida kuzatiladigan turli o'xshashliklar va farqlar kishini yanada chuqurroq izlanishga da'vat etadi. Bunday hodisa boshqa tillar kabi o'zbek va ingliz tillarida ham kuzatiladi. Buning namunasi o'laroq, grammatikaning bir kichik bo'lagi bo'lmish fe'l nisbatlarini olishimiz mumkin. Keling, ayni damda nisbat shakllarining o'zbek hamda ingliz tilidagi o'rni haqida so'z yuritamiz. Dastlab, nisbatlarning ta'rifiga yuzlansak. Fetl nisbatlari harakat va holat bajaruvchisining mazkur jarayonning amalga oshishida qay darajada ishtirok etganini bildiradi.

o'zbek tilida fe'l nisbatlari besh turni tashkil etadi. Ingliz tilida esa ular uch turdan iborat. Ulardan birinchisi aniq nisbat bo'lib, bosh nisbat deb ham yuritiladi. Bunda ish harakat gapning egasi sifatida takidlangan shaxs Yoki narsa tomonidan bajariladi.

Nigora idishlarni yuvdi. Misoldan turibdiki nisbat turi hech qanday grammatik vosita ya'ni qo'shimchaga ega emas. Ayni shu holat ingliz tilida ham va bu nisbat "Active voice" deb yuritiladi

Nigora washed up dishes, Guvohi bo'lganingizdek har ikkala misollarning kesimi o'tgan zamon qo'shimchasini qabul qilgan xolos. Keyingi nisbat turi o'zlik nisbati bo'lib, ish harakat shaxs yoki narsalarning o'zi ustida amalga oshadi.

Yan'i harakatni bajaruvchi shaxs bilan harakat tushgan obyekt biriashgan holda bo'ladi O'zbek tilida o'zlik nisbati fe'lga -n,-in,-l,-il qo'shimchasi orqali hosil boladi. Masalan: Nigora gulni uzish uchun egildi. Biroq, ingliz tilida nisbatning bu turi mavjud emas va u aniq nisbat orqali ifodalanadi. Masalan: Nigora went down to pick up the flower. Ushbu misollarning o'zbek tilidagi talqinida kesim vazifasida kelgan egmoq fe'lga-il o'zlik nisbati qo'shimchasi qo'shilgan. Ingliz tilidagi talqinida esa "to bend down"-egilmoq fe'li aniq nisbatda qo'llangan. Navbatdagi nisbat turi majhul nisbat bo'lib, ish harakatni amalga oshiruvchi shaxs noma'lum bo'ladi. O'zbek tilida ushbu nisbat turi xuddi o'zlik nisbati kabi -n,-in,-l,-il qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'ladi. O'zlik va majhul nisbatning qo'shimchalari bir xil bo'lganligi sababli ularni quyidagicha farqlaymiz Agarda yuqoridagi nisbat shakllaridan birini qabul qilgan fe'lning oldidan "o'zi" so'zini qo'yish mumkin bo'lsa, o'zlik nisbati, agarda ushbu fe'lning oldidan "tomonidan" so'zini qo'yish mumkin bo'lsa majhul nisbat hisoblanadi. Masalan: Gul ochildi. Sir ochildi. Birinchi misolimiz o'zlik nisbatida qo'llangan ya'ni gul o'zi ochiladi. Ikkinchi misolimiz esa majhul nisbatning yaqqol namunasidir. Ya'ni sir birov tomonidan ochiladi. Ingliz tilida majhul nisbat "Passive voice" deb yulitiladi va o'z zamonlariga ega. Bu zamonlar "to be" yordamchi fellini kerakli zamonda qo'yish bilan yasaladi. Masalan: Present simple - Nigora is invited.

Present continuous - Nigora is being invited.

Present perfect - Nigora has been invited.

Majhul nisbatning har ikkala tilda ham o'xshash tomonlari Jumladan, har ikkala tilda ham aniq nisbatda ega majhul nisbatda vazifasida keladi. Hamda har ikkala tildagi majhul nisbat yasovchi vositalar fe'lga o'timsiz fe'lga aylantiradi. Ularüing rarqi o'zbek tilidagi majhul yasovchi grammatik vositalar har qaysi zamonda orz shaklini o'zgaflirmaydi.

ingliz. tilida majhul nisbat yasovchi "to be" yordamchi fe'li moslashuvini talab qiladi. Kcyingi nisbat birgalik nisbati bo'lib, harakat yoki holat bir necha shaxslar tomonidan bajarilganini bildiradi. O'zbek tilida bu nisbat asosiy fe'lg-ish sh qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'ladi. Masalan: Nigora va Noila teatrga borishdi. Ammo, ingliz tilida bunday nisbat turi mavjud emas va o'zlik nisbati kabi aniq nisbat orqali ifodalanadi.

Masalan: Nigora and Noila went to the theater.

Yuqorida tatkidlanganidek "went" - bormoq fe'li aniq nisbatda ifodalangan.

So'nggi nisbat turi esa ortirma nisbat bo'lib, ish harakatning bajarilishida boshqa bir shaxs vosita bo'lib xizmat qiladi, ya'ni bir shaxs boshqa bir shaxsni undaydi, da'vat etadi.

O'zbek tilida bu nisbat turi - t, - ir, - iz, - sat, - dir, - tir, - giz, - kar qo'shimchalari orqali yasaladi.

Masalan: Nigora mashinasini yuvdirdi.

Ingliz tilida mazkur nisbat turi "have something done" birikmasi vordamida yasaladi. Ya'ni:

Have + to'ldiruvchi + fe'lining uchinchi shakli Masalan : Nigora had her car washed.

Ko'rib turganingizdek ushbu iboradagi "have" fe'li gapning zamoniga qarab o'zgaradi. Shuningdek, ba'zan "have" fe'lining o'rniga "get" fe'li ishlatilishi mumkin va ular orasida hech qanday farq mavjud emas. Shunday (qilib o'zbek tilidagi fell nisbatlari bilan ingliz tilidagi fe'l nisbatlarining farqlovchi va birlashtiruvchi tomonlarini ko'rib chiqdik. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Nima uchun bizning tilimizda nisbat turlari besh turga ajratiladi? Ya'ni nega ingliz tilidagi kabi O'zlik va birgalik nisbatlarini aniq nisbat orqali ifoda etolmaymiz. Fikrimcha, tilimizlling

asr davomida shakllangani bunga izn bermaydi. Masalan, birgalik nisbatiga bir misol keltiraylik:

Nigora va Noila teatrga borishdi

Nigora Va Noila teatrga bordi

Ikkinchi misolimizning kcsimi aniq nisbatda berilgan va biroz uslubiy g'alizlik ufurib turibdi. Chunki "bordi" fe'li ish harakatdan anglashilgan eganing bir kishi ekanini anglatmoqda.

Yoki o'zlik nisbatiga bir misol olaylik:

Nigora gulni uzish uchun egildi.

Nigora gulni uzish uchun egdi.

Bu misollarimizning ham ikkinchisida kesim aniq nisbatda berilgan va uslubiy g'alizlik kuzatilmoqda. Shuningdek, ega va kesim orasida mantiqsizlik mavjud. Bundan ko'rinib turibdiki tilimizda har bir nisbat o'z o'rniga ega. Bundan tashqari, o'zbek tilida aniq nisbatdan tashqari har bir nisbat o'z qo'shimchasiga ega. Biroq, ingliz tilida aniq nisbatdan tashqari har ikkala nisbat yordamchi fe'l yoki birikma orqali hosil bo'ladi. Bu esa tilimizning agglutinativ ya'ni har qanday grammatik ma'no qo'shimchalar orqali ifodalanuvchi, qo'shimchalarga boy tik ekanligini isbotlaydi.

REFERENCE

1. Ingliz tili grammatikasi. Muhammad G'opporov, Robiya Qosimova.
2. Ona tili. A. Anorbekova.
3. www. Uza.uz sayti.